

PEDAGOGIKA FANINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O’QITISHDA MA’NAVIY TARBIYA IMKONIYATLARI

Sobirova Dilorom Mirzakbar qizi

Namangan Davlat pedagogika instituti

pedagogika nazariyasi va tarixi 2-bosqich magistranti

Telefon raqam: +998932112806 murodullayevadilorom3@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21156630>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi raqamli transformatsiya asrida yoshlarni milliy gʻurur, qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash asosiy masala sifatida koʻrilgan. Yoshlarimizda mediaimmunitetni qanday shakllantirish borasida fikr yuritilgan. Zamonaviy yoshlarga taʼlim berishda qanday pedagogik mahorati kerakligi alohida taʼkidlandi. Taʼlimdagi integrativ texnologik jarayonlar mohiyati qisqacha taʼriflandi.

Kalit soʻzlar: Milliy gʻurur, etnopedagogika, taʼlim, integratsiya, mediataʼlim, globallasuv.

Annotation: This article considers the education of young people in the spirit of national pride and loyalty to values as a key issue in the current age of digital transformation. It discusses how to form media immunity in our youth. It specifically emphasizes what pedagogical skills are needed in educating modern youth. The essence of integrative technological processes in education is briefly described.

Keywords: National pride, ethnopedagogy, education, integration, media education, globalization.

Pedagogika fanini integrativ yondashuv asosida oʻqitish tizimida aksiologik prinsiplarning ustuvorligi, taʼlim oluvchining shaxsiy munosabatlar tizimi va qadriyatlar ierarhiyasini maqsadli shakllantirish zarurati bilan belgilab boriladi. Zamonaviy pedagogik voqelikda maʼnaviy tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish, fanning nazariy qiymatini etnopedagogik aksiologiya elementlari bilan sintez qilishni talab etmoqda. Xalq pedagogikasining asriy qadriyatlari (insonparvarlik, burch, vijdon, jamoaviylik) integratsiyalashgan taʼlim muhitida shunchaki informatsion obʼekt emas, balki shaxs maʼnaviy dunyosini shakllantiruvchi aksiologik dominant (yetakchi qadriyat) sifatida shakllanadi. Bu yondashuv dars jarayonida gumanistik paradigmani real voqelikka aylantirishning fundamental asosi boʻlib xizmat qilmoqda.

Taʼlim maʼnaviy tarbiyaning muhim vositasi boʻlib kelgan va shunday boʻlib qoladi. Talabalarni maʼnaviy jihatdan rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ularni ijtimoiy- gumanitar, psixologik-pedagogik hamda maxsus fanlarga doir bilimlar bilan chuqur va mustahkam qurollantirishdan iborat boʻlib, nazariy va professional bilimlarni egallash yoshlarda maʼnaviy tarbiyaning oʻsishiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.[1]

Bugungi kunda jahon taʼlim makonida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning nafaqat kasbiy malakasini, balki maʼnaviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Globallasuv va

raqamlashtirish jarayonlari sharoitida yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish pedagogika fani oldiga yangi talablarni qo'yib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda oliy ta'lim tizimidagi tayanch fan hisoblangan pedagogikani an'anaviy, ya'ni an'anaviy metodlar asosida o'qitish bugungi kun talablariga to'liq javob berolmaydi. Bu esa ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Pedagogika fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish – talabalarga faqatgina tarqoq pedagogik qonuniyatlar va didaktik tamoyillarni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, dunyoning pedagogik manzarasini yaxlit idrok etish imkonini beryapti. Integratsiya jarayoni talabaning intellektual salohiyatini uning ma'naviy-axloqiy yuksalishi bilan uzviylikda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Zero, ma'naviy tarbiyadan uzilgan ta'lim hech qachon kutilgan ijobiy natijani va jamiyat uchun komil shaxsni yetkazib bermaydi.

Integrativ yondashuvning asosiy mohiyati ta'limni turli fanlar o'rtasidagi

bog'liqlik asosida olib borishdan iborat. Mazkur yondashuvda bir nechta fan

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Pivovarova ishlarida integrativ metodikaning ta'limga texnologik yondashuvlar tavsifi quyidagicha bayon qilingan:

-“integrativ metodika” atamasini qo'llashdan asosiy maqsad ta'limga texnologik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniqlab, ulardan foydalanishda pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg'unlashtirishni tatbiq qilish modellarini ishlab chiqishdir.

- ta'lim jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanishi bir qancha didaktik, metodik va kognitiv omillarga bog'liq. Ta'lim jarayoni, uning sub'ektlari va ob'ekti o'rtasidagi integrativ jarayonlarni tashkil qilishning o'zi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyati natijasidagi kognitiv kategoriyalar asosidagi modellar mavjudligini taqozo qiladi.

Ta'limdagi integrativ texnologik jarayonlarning asosiy mazmunini yaratilgan ilmiy manbalarga tayanib, quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, an'anaviy o'qitish yozma va og'zaki usullarga tayanib ish ko'radi, an'anaviy o'qitishni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda ta'lim jarayonida axborot-ta'lim muhitini shakllantirish zarur; umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuterli ta'limni joriy etilmasligi yoshlarimiz kelajagi uchun xavfli holatdir

- ikkinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha mediata'lim printsiplari asosida yondashuvni taqozo qiladi.[2]

Ko'pchilik talabalar gohida noan'anaviy usulda o'tiladigan darslarni qiziqish bilan tinglaydilar. Axborot texnologiyalari yordamida o'tiladigan darslar jarayonida ana shunday usullardan foydalanishga imkon yaratiladi. Bu ta'lim tizimini ham yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ya'ni, globallashtirish davri hamda unga monand axborotlashgan jamiyatda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, hayotga tayyorlash, turli axborotlarni qabul qilish, yaxshi va yomonni, oq bilan qorani farqlay olishga o'rgatib borishdir.

Mutaxassislar fikricha, ta’lim axborotlashtirishi davlat ta’lim dasturini hayotga tatbiq etishning asosiy vositasi deb e’tirof etishimiz mumkin.

Demak, mediata’lim asosida dars o’tayotgan o’qituvchi qanday veb-saytdan foydalanayotganini yaxshi bilishi kerak. Bunda o’sha veb-sayt qaysi nufuzli idoraga qarashli ekaniga emas, balki, qay darajada savodli, ishonchli hamda asosli ekanini aniqlab (kerak bo’lsa, «O’zbekiston milliy entsiklopediyasi» kabi ishonchli manbalardagi ma’lumotlar bilan solishtirib) olish lozim. Tarbiyachining o’zi ham tarbiyalangan bo’lishi lozim, deganlaridek, buning uchun internetdan foydanuvchi avvalo bilimli, yuksak saviyali bo’lishi darkor.[3]

Mediata’limning eng muhim prinsipi – axborotni tanqidiy tahlil qilishdir. Talabalarga pedagogika darslarida internetdagi ma’naviyatsiz kontentlar, kiberbulling yoki g’oyaviy xurujlarni etnopedagogik mezonlar (andisha, hayo, o’zaro hurmat, oila muqaddasligi) prinsipi orqali tahlil qilish o’rgatib borilyapti. Sharqona axloqiy qadriyatlar raqamli makonda o’ziga xos "etnomadaniy filtr" vazifasini bajarishi barchamizni quvontiradi. Chunki talaba virtual dunyodagi voqea-hodisalarga milliy g’oya va umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan baho berishni o’rganadi hamda uning yod g’oyalar ta’siriga tushib qolishining oldi olinishiga erishiladi.

An’anaviy etnopedagogika uzoq yillar davomida faqat og’zaki yoki kitobiy shaklda uzatilib kelinadi. Bugungi raqamli avlod (Z va Alfa avlodlari) eshitish orqali emas, ko’rish (vizuallashuv) orqali axborotni oson qabul qiladilar. Integrativ yondashuv etnopedagogik manbalarni (maqollar, xalq o’gitlari, allomalar merosi, jadidlar pedagogikasi) zamonaviy media formatiga (infografikalar, qisqa videoroliklar, raqamli storytelling) o’tkazishni talab etmoqda. Bu jarayonda talaba passiv tinglovchidan faol kontent yaratuvchisiga (prosumer) aylanadi. Ular xalq pedagogikasidagi axloqiy mezonlarni bugungi kun ijtimoiy tarmoqlar tili bilan ifodalash orqali ma’naviy qadriyatlarni o’zlari uchun qayta kashf etib boryaptilar. Buning natijasida talabada transformatsiya davrida milliy g’urur va qadriyatlarga hurmat tuyg’usi saqlanib qolinmoqda.

XULOSA: Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki bugungi globallashuv va raqamli axborot davrida yoshlarimiz ongini faqatgina zamonaviy axborotlar qurshovida qolishi zamonamizning salbiy muammolaridandir. Shunday ekan biz pedagoglar kelajak avlodga bilim va tarbiya ulashish jarayonida ularga milliy qadriyatlar, ota-bobolarimizdan bizgacha meros qolib kelayotgan urf-odatlar va o’zaro munosabatlarni singdirib bormog’imiz zarur. Pedagogika fanini o’qitishni integrativ yondashuv asosida etnopedagogik qadriyatlarga uyg’unlashtirishimiz masalamizga yechim sifatida topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Integrativ yondashuv asosida bo’lajak pedagoglarni ma’naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali 2025-yil dekabr 12-son. 1127-1130b

2. INTEGRATIV YONDASHUV – O’QUVCHILARDA TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI. To’plam 15.03.2024. 464-470b

3. Ya. Mamatova, S Sulaymonova. O’zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo’lida. O’quv qo’llanma. 2015 y.